

INTELLEKTUAL MULK OBYEKTALARI SOHASIDAGI RAQOBAT

Yormuxammadova Zebiniso Otabek qizi

Xudoyorova Dilafruz Alisher qizi

To'rayeva Nilufar Botir qizi

O'zMU "Patentshunoslik" yo'nalishining 4-bosqich talabalar E-mail:

yormuxammadovazebiniso@gmail.com

E-mail: znilufar642@gmail.com

E-mail: xudoyorovadilafruz5@gmail.com

Rahimjonov Akmaljon Baxromjon o'g'li

Ilmiy rahbar: O'zMU "Huquqiy fanlar" kafedrası v.b.dotsenti y.f.f.d.

E-mail: akmaljonrahimjonov@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur tezisdá intellektual mulk obyektlari sohasida raqobatning mazmuni, uning huquqiy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida intellektual mulk obyektlarining erkin iqtisodiy raqobatni ta'minlashdagi roli, ushbu sohada ustun mavqega ega bo'lish xavflari, monopol holatlarni shakllantiruvchi omillar hamda ularni bartaraf etish mexanizmlari o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari va ularning o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanilishi ilmiy asosda tahlil etilgan.*

Tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari egalari, xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda raqobat muhitini tartibga soluvchi davlat organlari faoliyatida qo'llanishi mumkin. Tezis intellektual mulk huquqini himoya qilish bilan birga, bozorda halol raqobatni ta'minlashga qaratilgan taklif va xulosalarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: *Intellektual mulk obyektlari (IMO), raqobat, insofsiz raqobat, ishchanlik obro'si, innovation raqobat, marketing raqobat, brend, patent trollari, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, tovar belgisi, mualliflik huquqi, seleksiya yutug'i, firma nomi, tijorat siri.*

COMPETITION IN THE FIELD OF INTELLECTUAL PROPERTY

Abstract: *This thesis analyzes the content of competition in the field of intellectual property objects, its legal foundations and practical significance. During the study, the role of intellectual property objects in ensuring free economic competition, the risks of gaining a dominant position in this area, the factors forming monopoly situations and the mechanisms for their elimination were studied. Also, the Law of the Republic of Uzbekistan "On Competition", the legislative acts "On Intellectual Property" and their coordinated application were analyzed on a scientific basis.*

The results of the study can be used in the activities of owners of intellectual property objects, business entities and state bodies regulating the competitive

environment. The thesis also includes proposals and conclusions aimed at protecting intellectual property rights and ensuring fair competition in the market.

Keywords: *Intellectual property objects (IPO), competition, unfair competition, business reputation, innovation competition, marketing competition, brand, patent trolls, invention, utility model, industrial design, trademark, copyright, selection achievement, company name, trade secret.*

КОНКУРЕНЦИЯ В СФЕРЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ

Аннотация: *В данной работе анализируется содержание конкуренции в сфере объектов интеллектуальной собственности, её правовые основы и практическое значение. В ходе исследования рассматривается роль объектов интеллектуальной собственности в обеспечении свободной экономической конкуренции, риски получения доминирующего положения в этой области, факторы формирования монопольных ситуаций и механизмы их устранения. Также на научной основе проанализированы Закон Республики Узбекистан “О конкуренции”, законодательные акты “Об интеллектуальной собственности” и их скоординированное применение.*

Ключевые слова: *Объекты интеллектуальной собственности (IPO), конкуренция, недобросовестная конкуренция, деловая репутация, инновационная конкуренция, маркетинговая конкуренция, бренд, патентные тролли, изобретение, полезная модель, промышленный образец, товарный знак, авторское право, достижение в области отбора, название компании, коммерческая тайна.*

Результаты исследования могут быть использованы в деятельности владельцев объектов интеллектуальной собственности, хозяйствующих субъектов и государственных органов, регулирующих конкурентную среду. В работу также включены предложения и выводы, направленные на защиту прав интеллектуальной собственности и обеспечение честной конкуренции на рынке.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda intellektual mulk obyektlari (IMO) muhim strategik resurs hisoblanadi. Shu bilan birga aytish mumkinki, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotining jadal rivojlanishi sharoitida kompaniyalar o'rtasidagi raqobat intellektual mulk bilan bog'liq omillarga tobora ko'proq tayanmoqda.

Shu o'rinda, raqobat o'zi nima ekanligiga O'zbekiston Respublikasi “Raqobat to'g'rida”gi qonunining 4-moddasida shunday ta'rif beriladi: raqobat — xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish

imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi.¹⁶² Ma'lumki, bozor sifat jihatidan rivojlanishi uchun tadbirkorlik subyektlari o'rtasida sog'lom va vijdonli raqobat bo'lishi lozim. Biroq, ko'p hollarda insofsiz raqobat ko'plab boshqa sohalar singari intellektual mulk sohasini ham chetlab o'tmaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida" gi qonunning 4-moddasida ayni insofsiz raqobat nima ekanligi haqida so'z yuritiladi. Unga ko'ra: insofsiz raqobat — xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo'lishga qaratilgan, qonunchilikka, ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoxud ularning ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlari deb belgilab qo'yilgan.¹⁶³

Intellektual mulk obyektlari va ularning iqtisodiy ahamiyati: Intellektual mulk obyektlariga ixtirolar, foydali model va sanoat namunalari, tovar belgisi, mualliflik huquqi, seleksiya yutuqlari, firma nomi va tijorat siri kabi obyektlar kiradi.¹⁶⁴ Har bir obyektning iqtisodiy qiymati va huquqiy himoyasi mavjud bo'lib, ular raqobatda ustunlik yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ularning asosiy iqtisodiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Bozordagi raqobat ustunligini yaratish;
- Investitsiyalarni jalb qilishni osonlashtirish;
- Mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish;
- Товар belgisi orqali iste'molchida ishonch uyg'otish;
- Innovatsion faoliyatdan iqtisodiy foyda olish.

Tovar belgisi, patent yoki mualliflik huquqining mavjudligi korxona raqobatbardoshligini oshiradi hamda firmaning bozordagi mavqeini mustahkamlaydi.

Intellektual mulk obyektlari bozoridagi raqobat ikki asosiy yo'nalishda, innovatsion raqobat va marketing raqobat asosida shakllanadi:

Innovatsion raqobat: yangilik yaratish va texnik yechimlarni ishlab chiqishga asoslanadi. Ixtiro va foydali modellarga bo'lgan talab ortgani sari kompaniyalar ilmiy-tadqiqot ishlariga ko'proq mablag' yo'naltiradi. Patentlar orqali:

- yangilik himoyalanaadi;
- bozorda monopol mavqe vaqtincha ta'minlanadi;
- litsenziyalash orqali qo'shimcha daromad olinadi.¹⁶⁵

Marketing-raqobat (brendlar raqobati): Tovar belgisi intellektual mulk obyektlarining eng keng tarqalgan turi bo'lib, iste'molchi ongida mahsulotni boshqa mahsulotlardan ajratib turadi. Brendlar o'rtasidagi raqobat quyidagilar bilan belgilanadi:

- sifat va "imidj" uchun kurash;

¹⁶² O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida" gi qonuni.

¹⁶³ O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida" gi qonuni.

¹⁶⁴ WIPO.int. : World Intellectual Property Organization – Intellectual Property (IP) Fundamentals.

¹⁶⁵ WIPO.int. "Intellectual Property and Competition Policy"

- iste'molchi sodiqligini oshirish strategiyalari;
- tovar belgisini himoya qilish orqali qalbakilashtirishga qarshi kurash.¹⁶⁶

Intellectual mulk sohasida raqobatni cheklovchi omillar: Intellectual mulk (IM) sohasi innovatsiyalar va kreativ g'oyalarni himoya qilish bilan birga, raqobatni rag'batlantiruvchi kuch sifatida qaraladi. Ammo ushbu sohada ayrim iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy omillar raqobatni sezilarli darajada cheklashi mumkin.

Intellectual mulk huquqlarining haddan ziyod kuchli himoyasi yoki noto'g'ri qo'llanilishi raqobatni cheklashi mumkin. Masalan, katta kompaniyalar patent huquqlarini strategik tarzda yig'ib, yangi kiruvchilarning bozorga kirishini qiyinlashtiradi. Bu holat sog'lom raqobatni cheklaydi va monopolistik pozitsiyalarni mustahkamlaydi.¹⁶⁷

Bundan tashqari, patentlardan noto'g'ri foydalanish holatlari — masalan “patent troll”lar — sud yo'llari yoki litsenziya talabini kuchaytirib, kompaniyalarni moliyaviy jihatdan siqib chiqaradi. Bu noloyiq raqobat muhitini yaratadi va bozorga sog'lom kirishni bostiradi, natijada kichik va o'rtacha kompaniyalar raqobatga qodir bo'lmay qoladi.¹⁶⁸

Raqobatni rivojlantirish uchun bozorda shaffoflik, yangi ishtirokchilarga imkon berish va innovatsiyalarni rag'batlantirish birinchi o'rinda turadi. Kompaniyalar o'zaro sog'lom raqobat muhitida faoliyat yuritganda, mahsulot sifati oshadi, narxlar raqobatbardosh bo'ladi va iste'molchilar tanlovi kengayadi. Shu bilan birga, raqobatni rivojlantirish uchun davlat va bozor institutsiyalari patentlar, litsenziya va tovar belgilarini adolatli tartibda boshqarishi zarur.

Ayni raqobatni rivojlantirish bo'yicha fransuz iqtisodchisi Philippe Aghion va Kanadalik iqtisodchi Peter Howitt shunday ta'kidlaydiki, raqobatni rivojlantirish bozorga yangi ishtirokchilarni jalb qilish va innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali amalga oshiriladi. Raqobat kuchaygani sari kompaniyalar mahsulot sifatini oshiradi, ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilaydi va narxlarni iste'molchilar uchun maqbul darajada ushlab turadi. Shu bilan birga, patentlar va boshqa intellektual mulk huquqlari raqobatni ortiqcha cheklamasligi uchun adolatli boshqarilishi lozim.¹⁶⁹

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, intellektual mulk tizimi raqobatni rag'batlantirish va innovatsiyani himoya qilish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, u bozorning monopolizatsiyashtirish xavfini ham keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun samarali raqobatni ta'minlash uchun intellektual mulk tizimi nafaqat himoya kuchi, balki moslashuvchan mexanizmlarga ham ega bo'lishi lozim. Ya'ni, huquqlar yangi ishtirokchilar va kichik bizneslar uchun ham bozorga kirish imkoniyatini saqlab qolishi kerak. Shu tarzda, intellektual mulk va raqobat o'rtasidagi muvozanat sog'lom iqtisodiy muhitni yaratadi.

¹⁶⁶ thelaw.institute, “Trademarks: Building Brand Value and Economic Growth”

¹⁶⁷ WIPO.int. “Intellectual Property and Competition Policy”

¹⁶⁸ Cambridge Academic: “Patent Assertion and Competition”

¹⁶⁹ Aghion, P., & Howitt, P. (2005). *Innovation and Growth: Theory and Evidence*. MIT Press.

Bugunga kelib, O'zbekiston ham intellektual mulk sohasini rivojlantirish va raqobatbardosh innovatsion iqtisodiyot yaratish yo'lida muhim qadamlar bilan jadal rivojlanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida" gi qonuni.
2. WIPO.int. : World Intellectual Property Organization – Intellectual Property (IP) Fundamentals.
3. WIPO.int. "Intellectual Property and Competition Policy"
4. thelaw.institute, "Trademarks: Building Brand Value and Economic Growth"
5. Cambridge Academic: "Patent Assertion and Competition"
6. Aghion, P., & Howitt, P. (2005). Innovation and Growth: Theory and Evidence. MIT Press.